

O'QITUVCHINING KASBIY KOMPITENTLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI

Tajibayev G'ayrat Oribjanovich Qo'qon universiteti Andijon filiali,
f.-m.f.n., dotsent, ORCID: 0009-0006-3708-6823

Kabulov Nozimjon Abdukarimovich, Qo'qon universiteti andijon filiali, o'qituvchi,
t.f.d., dotsent ORCID: 0000-0002-9825-8434

To'lkinoxjayeva Nilufarxon Rasuljon qizi Qo'qon universiteti Andijon filiali,
o'qituvchi, Orcid: 0009-0001-5583-5609

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE TEACHER'S PROFESSIONAL COMPETENCE

Tajibayev Gayrat Oribjanovich Kokand University Andijan Branch,
Ph.D.-M.Sc., Associate Professor, ORCID: 0009-0006-3708-6823

Kabulov Nozimjon Abdukarimovich, Kokand University Andijan Branch, Teacher,
Doctor of Philosophy, Associate Professor ORCID: 0000-0002-9825-8434

Tulkinkhojjayeva Nilufarkhon Rasuljon qizi Kokand University Andijan Branch,
Teacher, ORCID: 0009-0001-5583-5609

***Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy ta'lim tizimini yangi axborot texnologiyalari tarkibida shakllantirish, axborot resurslari, ilmiy-texnik taraqqiyot, modulli o'qitish, axborotlashtirish, kommunikatsiya, ta'limda veb-saytlar, masofaviy o'qitish, o'qituvchining axborot madaniyati, internet resurslari va ulardan foydalanish shaxsning funksional savodxonligini rivojlantirish va takomillashtirish vositasi sifatida qarash, universal kompyuter savodxonligini taminlash, ijodiy fikrlashni shakllantirish asosida o'qituvchilarga kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars sifatining oshirilishi kuzatilgan va o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, masofaviy o'qitish, internet resurslari, animatsiya, axborot-ta'lim resurslari, innovatsiya.*

***Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы формирования современной системы образования в структуре новых информационных технологий, информационных ресурсов, научно-технического прогресса, модульного обучения, информатизации, коммуникации, сайтов в образовании, дистанционного обучения, информационной культуры учителя, интернет-ресурсов и их использование как средство развития и повышения функциональной грамотности личности, обеспечения всеобщей компьютерной грамотности, повышения качества занятий с использованием информационных технологий в профессиональной деятельности педагогов на основе формирования творческого мышления.*

Ключевые слова: Современные информационные технологии, компьютерные технологии, дистанционный обучение, интернет-ресурсы, анимация, информационные и образовательные ресурсы, инновации.

Abstract: The article describes the formation of a modern education system in the structure of new information technologies, information resources, scientific and technological development, modular teaching, informatization, communication, websites in education, distance learning, teacher information culture, Internet resources and Their use as a means of developing and improving the functional literacy of the individual, ensuring universal computer literacy, the formation of creative thinking has been observed and studied to improve the quality of lessons for teachers using information technology in their professional activities.

Keywords: Modern information technology, computer technology, remote training, Internet resources, animation, information and educational resources, innovation.

Kirish. O'zbekistonda global axborot va ta'lim makoniga kirishga qaratilgan yangi ta'lim tizimini ishlab chiqish amaliyotga bosqichma-bosqich tadbiiq etilmoqda. Ushbu jarayon zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos bo'lishi va yoshlarning axborot jamiyatiga barkamol kirishini ta'minlaydi. Bunda kompyuter texnologiyalari ta'lim tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan yaxlit o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

O'zbekistonda bugungi kunda olib borilayotgan siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri yosh avlodni ma'naviyatli yetuk insonlar sifatida tarbiyalashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kun ta'lim tizimida ish yuritayotgan o'qituvchidan o'z faoliyatida bir qator vazifalarni amalga oshirishi kerak. O'z sohasining ijodkori, izlanuvchisi, o'z faoliyatini tahlil qilabilishi, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarini ko'ra bilishi, ularni bartaraf etishi, o'z ish faoliyatini yangi texnologiyalar bilan takomillashtirishi va o'z ustida tinimsiz ishlashi, natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakli va uslubchisi bo'lishi kerak.

Bu masalada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida takidlab o'tgan [1,2]

Ta'lim muhitini shakllantirish O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, uni hal qilish uchun yangi sharoitda mutaxassislar tayyorlash mumkin bo'lgan istiqbolli ta'lim tizimini yaratish zarur. Maqsad -ta'lim sifatini oshirish, mamlakatning ilmiy-pedagogik salohiyatini ko'tarish, rivojlantirish va undan samarali foydalanish, axborot kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'limning yangi bosqichiga bosqichma-bosqich o'tish uchun sharoit yaratib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim sohasidagi ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish uchun o'rganilayotgan jarayonlar, hodisalar, obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, to'plash va tizimlashtirish va qayta ishlashni avtomatlashtirishdan iborat. Bunda, yangi axborot texnologiyalari tarkibida shaxsning funksional savodxonligini rivojlantirish va takomillashtirish vositasi sifatida qarash, universal kompyuter savodxonligini ta'minlash, axborot madaniyatini shakllantirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, o'qituvchilarga kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishlarida yangi dasturlar to'g'risida yo'llanmalar berib borish tizimini yaratishni taqozo etadi.

Axborotlashgan jamiyatga o'tish sharoitida o'qituvchilarni tayyorlashga bo'lgan talablar, ayniqsa, uning axborotga bo'lgan qobiliyatining oshishiga omil bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etishda ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qituvchining pedagogik va kasbiy faoliyatidagi o'rnini quyidagilar belgilab beradi:

- ✓ ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon yengillashadi;
- ✓ dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko'nikma va malakalar shakllantiriladi;
- ✓ ta'lim jarayonida o'qituvchining mustaqil faoliyati takomillashadi, dars jarayonining samaradorligi o'qituvchidan o'qituvchiga ko'chadi;
- ✓ o'qituvchilarning axborotni bilish qobiliyati uning kasbiy va pedagogik faoliyatida samarali qaror qabul qilishga imkon beradigan fanlarga oid bilimlarini tashkil qilishning maxsus turi sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchilardan kompyuter yordamida ma'lumotlarni taqdim etishi, saqlashi, qayta ishlashi va uzatish usullarini bilishi, shaxsiy kompyuterda operatsion tizimlar, yordamchi dasturlar, internetdan ma'lumotlar olishi va uni taqdim eta olishligi talab etiladi. Shuning zaminida o'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirish, ma'lum bir dunyoqarashini shakllantirishni, uning axborot texnologiyalaridan foydalangan holda pedagogik faoliyatni amalga oshirishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyat tizimiga ega bo'lishi taminlanadi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining kasbiy qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi, uning pedagogik madaniyatining chegaralarini kengaytiradi va kasbiy faoliyati samaradorligini shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rangbarangligi o'qituvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi [3,4]

Asosiy maqsad-inson hayotining barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal kirib borishi va rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

O'qituvchining kasbiy axborot madaniyati quyidagi mezonlar asosida shakllanib boradi:

✓ o'z kasbiy faoliyatiga tegishli axborotlarni olish, uni qayta ishlash va foydalanish metodlari va usullarini o'zlashtirishi;

✓ kompyuter savodxonligi va axborotni izlash malakasi, axborotdan foydalanish hamda baholash, kompyuter kommunikatsiyasi texnologiyalariga ega bo'lish, pedagogik faoliyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalari imkoniyatlarini egallash va foydalanishdan iborat axborot omilkorligi.

O'qituvchining axborot qobiliyatini shakllantirishdagi shaxsiy-faoliyat yondashuvi kasbiy ishdagi texnologik o'zgarishlarning darajasi va sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, nafaqat "nima qilish kerak", balki "buni qanday qilish kerak" degan savolga ham javob berishga imkon beradi. Innovatsion usulda ishlaydigan o'qituvchi quyidagi ishlarni bajarishi kerak, yani o'quv jarayonini texnologik jihatdan rivojlantiradi va shuning natijasida modellashtiradi (talabalarning bilim olishini kuzatish, hamkasblar tajribasini) [4, 5, 6].

Hozirgi vaqtda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi "hamkorlik tamoyillari" qurilishi kerak va ushbu vazifani bajarish uchun o'qituvchi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi bilishi talab etiladi.

Hususan, ixtisoslashtirilgan o'quv materiallarini ishlab chiqishda ta'limdagi haqiqiy vaziyatni hisobga olish zarur, bunda o'qituvchilarning axborot texnologiyalardan foydalana olish darajasini ikki bosqichda tahlildan o'tkaziladi:

1) ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning aksariyati kompyuterlarning zamonaviy dasturlaridan qay darajada foydalana olishi;

2) o'qituvchilarning kompyuter tarmoqlari bilan ishlay olishligi.;

Shunday qilib, ta'lim tizimining didaktik samaradorligi, ta'limning har qanday ko'rinishida ta'lim sifatini oshirish zamonaviy axborot-pedagogik va an'anaviy o'qitish texnologiyalarini ilmiy asosda birlashtirish, shuningdek, talabalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim va kognitiv faolligini oshirishga imkon beradi.

Bunda:

✓ o'qituvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'zlashtirishi va professionalligi, o'qituvchining axborot jamiyatini shakllantirishi va rivojlantirishda o'zining kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini aniqlash;

✓ axborot madaniyati innovatsion ta'lim muassasalari o'qituvchilarning malakasini oshirishning strategik manbaiga aylanishi, shaxsiy-faollik xususiyatiga ega va pedagogik madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi;

O'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga interfaol suhbatni amalga oshirish orqali o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiatsiya qilish, o'quv faoliyati usulini mustaqil ravishda tanlash va o'rganilayotgan ob'ektlarni kompyuterda vizual ravishda tanlash imkoniyatini beradi. [7, 8, 9].

Shunday tabaqalanishlarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalarini talim va tarbiya jarayonida qo'llay olishi va malakalarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Bunda:

- ✓ axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilishni bilishi;
- ✓ ta'lim jarayonida amaliy masalalarni yechishda axborot tarmoqlarini qo'llashi;
- ✓ masofaviy ta'lim elektron o'quv-metodik resurslaridan loyhdalanishi;
- ✓ multimediali hujjal va loyihalarni yaranshni bilishi;
- ✓ kompyuter tarmoqlari orqali olinadigan axborot xizmatlari turlarini tavsiflashi;
- ✓ fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning maqsadi, mazmuni va vazifalarini bilishi;
- ✓ axborot texnologiyalarini o'qitishda joriy etishning didaktik tamovillarini bilishi;
- ✓ axborot texnologiyalaridan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishi va uning mazmunini varata olishi:
- ✓ Internet ta'lim resurslari tog'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- ✓ axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tuzilmasi va ta'minotini; texnik va dasturiy vositalarini egallashi.

Bundan tashqari, masofadan turib o'qitish shakli ta'lim tizimi o'quvchi va o'qituvchilarning shaxsiga yo'naltirilgan muammolarini hal qilishda juda samarali bo'lishi mumkin. Multimedia axborot vositalarini joriy etish natijasida o'quv jarayonining samaradorligi o'quvchining aqliy faoliyatiga o'ziga xos ta'siri ortadi [10].

Tahlil. Natijada, multimedia tizimidan foydalangan o'qituvchilarda innovatsion o'quv jarayonidagi pedagogik faoliyatning mazmuni an'anaviylardan ancha farq qiladi. Birinchidan, multimedia kurslarini rivojlantirish juda murakkab bo'lib, bu o'qituvchidan maxsus ko'nikmalarni, o'qitish usullarini rivojlantirishni talab qiladi. Ikkinchidan, an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, bunda o'qituvchi markaziy boshqaruvchi vazifasini ado etadi va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishni asta-sekin o'zining individual ta'lim yo'nalishiga tadbiq etib boradi. Uchinchidan, multimedia tizimidan foydalangan holda o'quv materialini taqdim etish o'qituvchi va talaba o'rtasida yanada faol va intensiv aloqalarni talab qiladi. To'rtinchidan, dars texnologiyasining o'zi ancha murakkab, chunki o'qituvchi bir

vaqtning o'zida materialini taqdim qilishi, multimedia tizimining o'rnatilishini boshqarishi, ekrandagi tasvirni kuzatishi va o'quvchilar auditoriyasining emotsional holatidagi o'zgarishlariga tezlikda munosabat bildirishi kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish kerakki, ilm-fan, ishlab chiqarish va texnologiyalarining yuqori taraqqiyotidan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimida ham texnologiyalarni keng qo'llashni yo'lga qo'yish, o'qituvchilarning yangi axborot va pedagogik texnologiyalarini o'zlarining ish faoliyatiga qo'llashi evaziga, ta'lim berayotgan o'quvchilarining fanlarga qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko'nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga, muayyan fanlarning mazmunini o'zlashtirish bilan bog'liq masalalarga echim topish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi NIZOM" Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga 1-ilova. [Internet manba], URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5193564> (Murojaat etilgan sana: 09.10.2021).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 22 январь 2018 йилдаги "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили" да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида" ПФ-5308 –сонли Фармони. <https://www.lex.uz>

3. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: "Сано стандарт" нашриёти, 2015.Б. 203

4. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. –Тошкент: "Истеъдод" жамғармаси, 2008. Б.180

5. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях. – Москва: МГУ, 2018. С. 306

6. Васильева И.А., Осипова Е.М., Петрова Н.Н. Психологические аспекты применения информационных технологий // Вопросы психологии. 2002. – №3. С. 300 220-254.

7. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. - Т.: «Fan va texnologiya», 2018.В. 530

8. Мухамадиев А.Ш. Аудиовизуал технологияларнинг таълимни ташкил қилишдаги роли ҳақида. // Ахборот технологиялари ва телекоммуникация тизимларини самарали ривожлантириш истиқболлари Республика илмий-техник конференцияси маърузалар тўплами. 4-қисм. - Т., 2014. В.15-20

9. Абдукадиров Абдукаххор Абдувалевич. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. монография / А. А. Абдукадиров, А. Х. Пардаев; ред. М.

Соди́кова. - Т.: Ўзбекистон республикаси фанлар Академияси "ФАН" нашриёти, 2009.В.200

10. Матрицы в Excel: операции (умножение, деление, сложение, вычитание, транспонирование, нахождение обратной матрицы, определителя). [Электронный ресурс]. URL: https://pedsovet.su/excel/6080_operacii_s_matricami (Дата обращения: 2022-03-02).